

MAKTAB O'QUVCHILARINI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH

Muminova Javxar Choriyevna

Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumanidagi 7-maktab psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada maktab o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish jarayonining psixologik va pedagogik asoslari yoritiladi. O'quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari va individual xususiyatlarini aniqlash orqali ularni to'g'ri kasb tanlashga yo'naltirish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, kasb tanlashda maktab, oila va psixolog hamkorligining ahamiyati ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: kasb-hunar, yo'naltirish, o'quvchi, qobiliyat, qiziqish, psixologiya, motivatsiya, kasb tanlash.

KIRISH

Maktab o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish bugungi ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biridir. Har bir o'quvchi o'z qiziqishi, qobiliyati va individual xususiyatlariga mos kasbni tanlashi kerak. Bu jarayon to'g'ri tashkil etilsa, kelajakda jamiyat uchun yetuk va malakali mutaxassislar shakllanishiga xizmat qiladi.

Kasb tanlash jarayoni o'quvchining psixologik rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. O'smirlik davrida qiziqishlar tez o'zgaradi, shu sababli ularni aniqlash va to'g'ri yo'naltirish muhim hisoblanadi. O'quvchi o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholay olmasa, noto'g'ri kasb tanlash xavfi ortadi. Maktab psixologi bu jarayonda muhim rol o'ynaydi. U turli psixodiagnostik metodlar yordamida o'quvchining qobiliyati, qiziqishlari, temperamentini aniqlaydi. Testlar, suhbatlar va kuzatish orqali olingan natijalar asosida individual tavsiyalar beriladi. O'qituvchilar ham kasbga yo'naltirish jarayonida faol ishtirok etadi. Ular dars jarayonida o'quvchilarning qaysi sohada kuchli ekanligini kuzatib boradi va ularni rag'batlantiradi. Amaliy mashg'ulotlar orqali o'quvchilarning qobiliyatlari yanada namoyon bo'ladi.

Oila ham kasb tanlashda muhim ta'sir ko'rsatadi. Ota-onalar farzandining qiziqishlarini qo'llab-quvvatlashi, unga bosim o'tkazmasligi va mustaqil qaror qabul qilishiga imkon yaratishi kerak. Aks holda, noto'g'ri tanlovlar yuzaga kelishi mumkin.

Kasbga yo'naltirish jarayonida o'quvchilar bilan treninglar, kasb tanishtiruv tadbirlari va ekskursiyalar o'tkazish ham samarali hisoblanadi. Bu ularning real hayotda kasblar haqida tasavvurini kengaytiradi. Respublikamizda olib borilayotgan tub islohatlar har bir kishida chuqur va mustahkam bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyatni, erkin fikr, ijodkorlik, vatanparvarlik va insonparvarlik fazilatlarini tarkib toptirishni taqozo etmoqda.

Islohotlarni hayotga tadbiriq qilish ko'p jihatdan o'quv-tarbiya mazmunini isloh qilish, o'quvchilar yosh xususiyatlarini bilish, har qaysi yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan pedagogik, psixologik jarayonlar xususiyatlarini qanchalik yaxshi bilgan mutaxassislariga bog'liq. Kasb faoliyati bilan bog'liq bo'lgan har qanday masala uning kasb mahorati, texnikani qanchalik egallaganligi darajasi, kasbini sevish darajasi bilan bog'liq.

Ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatdagi vazifa sifatida kasbga yo'naltirish ishlarini mazmun va sifat jihatdan takomillashtirish hozirgi kunda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu vazifaning uzluksiz ta'lim tizimidagi o'rni to'g'risida "Ta'lim to'g'risidagi" qonun va qabul qilingan qarorlari, shuningdek, shaxs rivojlanishini tatqiq qilishda tizimlilik, integrallik, shaxs va faoliyat birligi nazariyasi, determinizm ta'moyillari nuqtai nazaridan yondashish, mamlakatimiz va chet elda kasbga yo'naltirish masalalarini yorituvchi pedagogik, psixologik tadqiqotlar, sharq alomalarining falsafiy pedagogik g'oyalari ham o'quvchilarni kasb – hunarga yo'naltirishni ilmiy tatqiq qilishning nazariy metodologik asoslari hisoblanadi

Professor R.X.Jo'raevning asosli ta'rifi bo'yicha, "kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining asosiy maqsadi, eng avvalo, individga o'z qiziqish, qobiliyat va imkoniyatlarni to'liq anglash, hohish-istaklarini amalga oshirish, vosita usullarini to'g'ri belgilash hamda mustaqil qarorga kelish uchun imkoniyat va zarur

shartsharoitlarni yaratishdan iborat”.

Kasbga yo'naltirishdan asosiy maqsad o'sib kelayotgan yosh avlodni ongli va mustaqil ravishda kasb tanlashga tayyorlashdan iborat bo'lib, bu jarayon shaxsning bo'lg'usi kasbiy faoliyat subekti sifatida shakllantirishni nazarda tutadi hamda uning bozor iqtisodiyoti munosabatlariga moslashib borishiga ko'maklashadi. Zero, bolaning qiziqish va qobiliyatlari asosida to'g'ri tanlangan kasb kelajakda malakali, yetuk mutaxassislarning yetishib chiqishiga sabab bo'ladi. Bu esa bugungi kunda Respublikamizda amalga oshirilayotgan ta'lim tizimini isloh qilish jarayonida amalga oshirilishi lozim bo'lgan eng dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

Kasbga yo'naltirishga yoshlarning kasbni erkin va mustaqil tanlashining ilmiyamaliy tizimi sifatida qaralishi lozim. Bunda har bir shaxsning individual xususiyatlarini hisobga olish, xalq xo'jaligi manfaatlari nuqtai nazaridan mehnat zahiralari bilan to'laqonli ta'minlash zarurati kabi omillarni e'tiborda tutish joiz.

Hayotda turli xil kasblar mavjud. Bir odam bir necha xil kasblarni egallashi mumkin, lekin shu bilan birga har bir kasb shu qadar murakkabki, inson o'z hayotini, asosan, ana shu bir kasbga bag'ishlashi mumkin. Shu asosda kasb tanlash muammosi vujudga keladi.

Kasb-hunarga yo'naltirishni bola tarbiyasining dastlabki bosqichlaridan, ular dunyoni tushuna boshlashining ilk qadamlaridan boshlash lozim. Bola bog'chaga borar ekan, undagi xususiyatlar, undagi o'ziga xosliklar tengqurlari bilan o'ynash jarayonida, tarbiyachi tashkil etadigan har xil guruhliy o'yinlar jarayonida va hokazolarda ko'rina boshlaydi. Demak, bola o'yin orqali to'la kasblar va shu faoliyat bilan tanisha boshlaydi. Masalan: “do'kon” yoki “bozor” o'yini orqali bola ham “sotuvchi” ham “xaridor” bo'la oladi, “pul” va “tovar” bilan muomala qilishni o'rganadi, bundan tashqari “bog'cha”, “maktab”, “shifoxona” o'yinlarida ham bola “tarbiyachi”, “o'qituvchi”, “shifokor” kabi rollarni bajarib bu kasb egalariga taqlid qila boshlaydi.

Mana shularni hisobga olgan holda har bir tarbiyachi bolalar bilan ularning yosh va individual xususiyatlaridan kelib chiqib turli xil kasblarga oid guruhliy

o'yinlar tashkil qilib borishi, kasblarning turlari, o'ziga xos jihatlari bilan ularni tanishtirib borishi maqsadga muvofiqdir. Bu bosqichni kasb tanlashga tayyorgarlikni boshlanish bosqichi deb atash mumkin.

O'quvchilarni erta yoshdan kasb-hunarga yo'naltirish – hozirga kunda umumta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya ishlari bilan birgalikda olib boriladigan uzluksiz jarayondir. Boshlang'ich sinflarda kasbga yo'naltirish ishlari dars va darsdan tashqari soatlarda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda kasb turlari bilan tanishtirish hamda o'yinlar orqali ularda turli kasblarga bo'lgan ilk qiziqishlarini aniqlashdan, shuningdek ko'rgan va eshitgan ma'lumotlarini yodda saqlash va qayta tiklashning oddiy va murakkab operatsiyalarini, umumiy o'quv, mehnat va kommunikativ malaka va ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

2-4-sinflarda o'quvchilarning idroki ancha rivojlanadi. Agar 1-sinf o'quvchilari harflarni va sonlarni adashtirsalar, 2-4-sinflarda bunday xatoliklarga yo'l qo'ymaydilar. 2-4-sinf o'quvchilari endi predmetlarni nafaqat shunchaki nomini aytishlari balki uni ta'riflashlari, uning qismlarini, inson hayotidagi vazifa va ahamiyatini aytib berishlari mumkin.

2-4-sinflarda rasm asosida hikoya tuzib berish, ko'rganlarini so'z bilan tasvirlab berish qobiliyatlarini rivojlantirish juda muhim. Bolalarga rasmda qanday voqealar sodir bo'layotganini tushuntirish va ularni baholash, kuzatilayotgan predmet va hodisalar orasida ichki bog'liqlikni o'rnatish, vaziyat, predmetlarni o'zaro taqqoslay olish hamda o'z nuqtai nazarini asoslashga o'rgatish lozim.

Keyingi yosh davrlarida bu tayyorgarlik turli faoliyatlarda turlicha ko'rinishlarda davom etadi. Bola “men kim bo'laman?” savoliga to'qnash keladi.

Biz ushbu savol yuzasidan 4-sinf o'quvchilariga “Kelajakda sen kim bo'lmoqchisan?” va “Nima uchun, javobingni asoslab ber?” deb murojat qilib ko'rdik. Sinfdagi 31 nafar o'quvchining aksariyati o'zi kelajakda kim bo'lishini hali to'liq tasavvur qila olmaydi va kelajak rejasini ham tuzmagan. Ular yuqorida berilgan savollarga umumiy holatda javob berishga harakat qilishdi, ya'ni turli kasblarning nomlarini aytishdi, lekin nima uchun shu kasbni tanlashganliklarini

aksariyat bolalar tushuntirib berisha olishmadi. Tushuntirib berganlarining ham ko'pchiligi kimgadir taqlid qilib ushbu kasbni tanlashgani ma'lum bo'ldi. Suhbatlarimizning birida O.ismli o'quvchi quyidagi fikrni bildirdi: "Men kelajakda harbiy bo'lmoqchiman, chunki ular osmondan parashyutda sakrashadi yoki bo'lmasa tog'amga o'xshab magazinda ishlayman, pianino chalishga ham qiziqishim bor". O'quvchining bu mulohazalarini tahlil qilishning hojati yo'q, chunki unda hali biror maqsadga yo'naltirilgan g'oya mavjud emas.

Bolalarda ma'lum bir sohaga bo'lgan qiziqishlarning uchquni ko'ringanda, ushbu uchqunni alanga oldirish lozim; ushbu sohaga chuqurroq qiziqtirish, sohaga aloqador bo'lgan kitoblar, qo'llanmalar, asbob-uskunalar olib berish, ushbu kasb to'g'risida, uning ahamiyati, jamiyatdagi o'rni, soha namoyondalari to'g'risida ham chuqurroq ma'lumotlar berib turish foydadan xoli bo'lmaydi.

Kasbga yo'naltirish mashg'ulotlarida yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda mavjud psixologik o'yinlarning turli modifikasiyalarini qo'llash lozim. Masalan, sezgi va idrokni rivojlantiruvchi "Sehrlil xaltacha" o'yini mavjud. Xaltachaga turli kasblar bilan bog'liq bo'lgan predmetlar solinadi. Bola xaltachaning ichiga qaramasdan- faqatgina ushlab ko'rib, predmetning nomini va uni qaysi kasbga tegishli ekanini topishi lozim. Bu yoshda bolalar ko'pincha o'ylamasdan impulsiv harakat qiladilar, ular qo'yilgan maqsadga erishishda qiynaladilar. Ularga o'qish faoliyati ya'ni yangi bilimlar olish emas, balki o'qituvchi tomonidan unga qo'yiladigan baho ahamiyatliroq.

Bundan tashqari boshlang'ich sinflarda "Harakatlarga qarab kasbni aniqla", "Bu kasb bilan bog'liq ..." harfiga iloji boricha ko'proq so'zlarni esla", "Bu kasb bilan bog'liq bo'lgan mehnat qurollarini kartochkalar orasidan tanla" kabi o'yinlarni o'tkazish mumkin. Matematika darsida "Do'kon", o'qish darsida "Kutubxona", tabiat darsida esa "Ekskursovod-gid" kabi rolli o'yinlar ham o'quvchilarning kasbiy tasavvurlarini kengaytiradi.

V-VI sinf o'quvchilaridagi qiziqishlar ham hali uncha barqaror bo'lmaydi. Bunday qiziqish-havaslar ko'pincha birdaniga boshlanib ketadi va shuningdek, tez yo'qolib ham ketadi. Boladagi bir qiziqish o'rnini boshqa bir qiziqish egallaydi.

Suning uchun ham qiziqishlarni tarbiyalash, ya'ni bolada ijobiy barqaror qiziqish-havaslar paydo qilish zarurdir. Bu davrga kelib "O'quvchilarning qiziqishlarini aniqlash" so'rovnomasi, "Kasb tiplarini aniqlash" metodikasi, "Mo'jizalar maydoni o'yini", "Kasblar alifbosi" o'yini, "Kasblar zanjiri" o'yini va shunga o'xshash ko'plab boshqa metodikalardan foydalanish orqali o'quvchilarda turli kasblarga bo'lgan qiziqishlarini aniqlashimiz mumkin.

Albatta, to'g'ri yo'lga qo'yilgan ta'lim ishlarinig o'ziyoq o'quvchilarda qiziqishlarni tarbiyalaydi. O'quvchilarda qiziqish paydo qilish va uni barqaror qilish o'qituvchilarga bog'liq. O'quvchilarda qiziqish paydo qilish va unung barqarorligini saqlab qolish uchun avvalo o'qitiladigan darslarning emotsional, yorqin va jonli bo'lishi, o'quvchilarga beriladigan materiallarni amaliyot bilan bog'lab borish, so'ngra esa o'qib o'rganiladigan fanlarni turmushning turli sohalaridagi rolini, bilimlarning kelgusida kasb egallash va ma'lumotni oshirish uchun zarurligini anglab olishi katta ahamiyatga egadir.

O'quvchilarda fanga qiziqishni paydo qilish va uning barqarorligini saqlab qolishda o'qituvchining fanga bo'lgan munosabati katta rol o'ynaydi. Agar o'qituvchi o'z fanini sevsa, unga qiziqsa, u vaqtda o'quvchilarda ham shu fanga ko'p darajada barqaror qiziqish va shu bilim bilan bog'liq bo'lgan vaziyatda qiziqishhavas paydo bo'ladi.

O'smirlilik davrida fanga bo'lgan qiziqish mustahkamlanishi bilan birga, kelajak kasbga birmuncha barqaror qiziqish shakllana boshlaydi. VII–VIII sinf o'quvchilari kelgusida o'zlarining qiladigan ishlari va kasblari to'g'risida jiddiy o'ylay boshlaydilar. 14–15 yoshdagi o'smirlarning kelajagi masalasi oila sharoitida ham jiddiy muhokama mavzui bo'lib qoladi.

IX sinflarda kasb tanlash o'quvchilarning asosiy masalasi bo'lib qoladi. Ular qiziqishlariga qarab akademik litsey yoki kasb-hunar kollejlarida ta'lim olishni davom ettirishlari mumkin.

Shu nuqtai nazardan, o'quvchining ongli kasb tanlashiga ta'sir etuvchi omillar uning individual tipologik xususiyatlari yoki ichki imkoniyat va ehtiyojlari hisoblanadi. Bundan tashqari o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda kasbiy

o'zlikni anglashning nomoyonligi – ichki pozitsiyaning shakllanish qonuniyatiga asoslanish kerak deb o'ylaymiz. Ma'lumki, ichki pozitsiya o'z-o'zidan emas balki subyektning tashqi muhit bilan uzluksiz aloqada bo'lishi va tashqi muhitning unga ta'sir etishi jarayonida shakllanadi. Mana shu ikki tomonlama ta'sir hamda ijtimoiy munosabatlar jarayonida inson o'zligini izlaydi va shu “izlanish” oqibatida o'zligini anglaydi.

Ta'lim muassasalarida beriladigan ta'lim-tarbiya o'quvchining turli fanlarga bo'lgan tanlovli munosabatini keltirib chiqaradi, ayrim o'quvchilarda esa qaysidir fanlarga hamda tasviriy san'at, musiqa, sport, badiiy ijod kabi sohalarga bo'lgan qiziqishi tez seziladi.

Kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining samarali usullarini amaliyotga joriy etish maqsadida o'smir yoshdagi o'quvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faol ijtimoiy hayotga tayyorlashda ularning qiziqishi, jismoniy va aqliy imkoniyatlari, mehnat bozoridagi kasblarga bo'lgan ehtiyojiga e'tibor qaratish muhimdir.

O'quvchilarni uzluksiz kasb-hunarga yo'naltirish usullaridan biri esa kasbiy tashxis metodikalari yordamida ularning kasbiy yo'nalganligini aniqlashdir.

Barchamizga ma'lumki hozirgi kunda 9-sinf bitiruvchilari bilan “Qiziqishlar anketasi”, “Kasbiy motivatsiyani aniqlash”, “Differentsial-diagnostik so'rovnoma”, “O'quvchilarni kasbiy yo'nalganligini aniqlash metodikasi”, “Shaxs sifatleri va kasbiy qobiliyatlarni o'rganish metodikasi”, Kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatini aniqlash metodikasi”, “Qiziqishlar xaritasi” kabi kasbiy tashxis metodikalaridan foydalaniladi. Ushbu metodikalar uzoq yillar davomida qo'llanilib kelinayotganligi hamda metodikalar yordamida o'quvchilarga tavsiya etilayotgan kasblarning hozirgi zamon talablariga mos kelmasligi, test savollarining ko'pligi o'quvchilarning ko'p hollarda test ishlash davomida zerikish holatlariga olib kelishini inobatga olgan holda metodikalarning qisqartirilgan variantlari tayyorlandi. Bular “Kasb tanlash motivini aniqlash”, “Kasbiy moyillik so'rovnomasi”, “Kasb tiplarini aniqlash (Klimov metodikasi) hamda “Qiziqishlar xaritasi” metodikasi

Bundan tashqari amerikalik psixolog olim Y. Xolland tomonidan taklif etilgan

Xolland metodikasi orqali ham o'quvchilarning kasbiy qiziqishlarini aniqlashimiz mumkin. Unga ko'ra odamlar va ko'pchilik kasblarni shartli ravishda 6 guruhga bo'lish mumkin (realistik, ijtimoiy, konvensial, tadbirkor, artistik tiplar). Bu metodika yuqorida qayd qilingan tiplarni qay biri qay darajada shaxsda namoyon bo'lishini aniqlash imkonini beradi. Kasblarning xususiyati shundaki, shaxs psixologiyasida qaysi bir yo'nalish ko'proq shakllangan bo'lsa, shu kasb o'ziga ko'proq jalb qiladi.

Metodikaning afzal jihatlaridan biri shundan iboratki, bunda olingan natijalarni osonlik bilan qayta ishlash mumkin. Bu esa olingan natijalar asosida o'quvchi bilan uning kasbiy maqsadlari va shaxsdagi ustuvor yo'nalishlar haqida darhol suhbatlashish imkononi beradi.

Hozirda umumta'lim maktablarida amalga oshirilayotgan kasbga yo'naltirish ishlarining yakuniy bosqichida bitiruvchilarga o'rta-maxsus kasb-xunar ta'limi muassasalari tayyorlov yo'nalishlariga tavsiyalar beriladi. Bu tavsiyalar o'quvchilarning moyillik, qiziqish va qobiliyatlarini uzluksiz psixologik-pedagogik tashxis qilish xulosalariga asoslangan bo'lsada, bitiruvchilarning ko'p qismi obyektiv va subyektiv sabablarga ko'ra, kollej va litseyni tanlashda kasbiy motivlarni o'zgartiradi. Bu holat psixologlar tomonidan bitiruvchilar o'rtasida o'tkazilgan tadqiqotlarda ularning ko'pchiligi tavsiya etilgan ta'lim muassasidan boshqasini tanlaganlari, ulardagi motivlarning o'zgarishida ham aniqlangan. Shulardan 44,2 % ota-onasining xoxishi bilan, 15,2 % kasbning nufuzligi uchun, 14,7 % tanlangan kasbdan moddiy manfaat kutib, 14,7 % ota-onasining kasbini davom ettirmoqchi, 13,9 % shu kasbga keyinchalik o'zi qiziqib qoldi, 7,0 % aka-opalarining izidan bordi, 6,1 % o'zi uchun hurmatli bo'lgan kishining kasbini egallamoqchi, 5,1 % do'stlariga ergashadi.

Ko'rinib turibdiki, eng ko'p (44,2 %) bitiruvchilar ota-onalarining hohishi bilan o'z kasbiy rejalarini o'zgartirganlar. Demak, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda ota-onalar bilan ishlash, farzandining kasbiy moyillik, qiziqish va

qobiliyatlaridan ularni xabardor qilish, har bir insonning o'z hayot yo'li borligi, shuning uchun ham farzandlarini o'zi yoqtirgan va qoniqtiradigan kasblarga yo'naltirish lozimligini tushuntirish kerak.

O'spirinlar kasb tanlash to'g'risida yaqqol tasavvurga ega bo'lmaganliklari boisdan ko'proq xatoga yo'l qo'yadilar. Tanlagan yoki tanlanishi zarur bo'lgan kasb undan qanday shaxs fazilatlarini talab qilishini tushunib yetmaydilar. Ular o'z layoqatlarini oqilona baholashga qurbi yetmaganligi uchun u yoki bu kasbni egallaganda qanday tezlikda va aniqlikda harakat qilishlikni, sezish va idrok qilish xususiyatlarini, asab tizimini muvofiqlashishi mumkinligini bilmaydilar. Biroq hozirgi davrda bunday ko'ngilsiz holatlarning oldini olish imkoniyatlari mavjud bo'lib, buning uchun quyidagi pedagogik psixologik va ijtimoiy xususiyatni umumiy tomonlariga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiq.

Kasblarni o'rgatish metodlarini ishlab chiqish, ularni klassifikatsiyalash va lo'nda qilib ifodalash. O'qituvchining kasb-hunarlar yuzasidan tashviqot ishlari olib borishi, o'quvchilar bilan kasbga doir individual konsultatsiyalar, maslaxatlar uyushtirish, o'spirin va uning ota-onasi bilan kasbga yo'naltirish metodikasini birgalikda ko'zdan kechirish. Yoshlarni kasbning asosiy guruxlari bilan yaqindan tanishtirish, muayyan kasb oldiga qo'yiladigan shaxsning fiziologik, psixologik fazilatlarini hamda kasb o'rganishning yo'llari bilan tanishtirishni tashkil qilish.

- Mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarda dastlabki kasbga tayyorgarlikni yuzaga keltirish va unga nisbatan mehr-muhabbat uyg'otish.
- Psixodiagnostik va kasb tanlashga doir metodlarni amaliyotga tadbiq qilishga moslashtirilgan turlarini ishlab chiqish.
- Tuman va shaharlarda zamon talabiga javob beradigan kasb tanlash markazlarini jihozlash.
- Kasb tanlashni tashviqot qilish yuzasidan o'spirinlarni ommaviy axborot vositasiga jalb qilish va ularni psixologik jihatdan tayyorlash kabilar.

- O'quvchilarni ongli kasb hunar tanlashga tayyorlash ishlarining samaradorligiga ta'sir etuvchi yana bir omil ularni kasb-hunarga yo'naltirish jarayonida interfaol psixologik, pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish va kasbiy psixologik pedagogik tashxisning uzluksizligiga erishishdir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, maktab o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish tizimli va kompleks yondashuvni talab qiladi. Psixolog, o'qituvchi va ota-onaning hamkorligi orqali o'quvchilarning to'g'ri kasb tanlashiga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ivanov P.I., Zufarova M. E. Umumiy psixologiya. T, 2008 O'zb.FMJ, darslik.
2. Nishanova Z., Alimbayeva Sh., Sherimbetova Z.Sh. Psixologik xizmat. Elektron darslik. –T.: 2012 y.
3. G'oziyev E.G'. Mamedov K.K. "Kasb psixologiyasi" Toshkent, 2003 y.
4. I.O. Haydarovning umumiy tahriri ostida "Uzluksiz kasb-hunarga yo'naltirish usullari" metodik qo'llanma. Toshkent, 2013 y.
5. ZIYO.NET